

## **O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA TO'LDIRUVCHI VA UNING TURLARINI QO'LLANILISHI**

*Dilorom Shodmonqulova*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi  
(dotsent)*

*Nazirqulova Shohista Ilhom qizi*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich  
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida ishlatilgan to'ldiruvchi va ularni qanday qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maqol, to'ldiruvchi, to'ldiruvchining turlari, to'ldiruvchining maqollarda ifodalanishi.

Использование наполнителя и его виды в узбекских народных пословицах

Аннотация: В данной статье представлена информация о дополнителях, используемых в узбекских народных пословицах, и о том, как они используются.

Ключевые слова: пословица, наполнитель, виды дополнителя, выражение дополнителя в пословицах.

The use of filler and its types in Uzbek folk proverbs

Abstract: This article provides information about fillers used in Uzbek folk proverbs and how they are used.

Key words: proverb, filler, types of filler, expression of filler in proverbs.

Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar

mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan.

To'ldiruvchi deb gapning kesimi bilan bog'lanib predmetlik ma'nosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orqali, uchun), nima (bilan, orqali, uchun) so'roqlariga javob bo'lgan ikkinchi darajali bo'lakka aytiladi. To'ldiruvchi ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan : Oy to'lmagan bo'lmasa ham, juda yorug', shabadada silkinayotgan terak barglarini bitta-bitta sanab chiqish mumkin (P.Qodirov). Berilgan asardan parchada shabadadan va barglarini so'zlari to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

To'ldiruvchi va uning turlari maqollarda ham keng qo'llaniladi. Ular maqollarni boyitib ma'nosini yanada aniqroq ochib berishga yordam beradi. Misol uchun: Aql va idrok quyoshga o'xshaydi, ular dog'larni bekitadi. Ushbu maqolda quyoshga va dog'larni so'zlari to'ldiruvchi vazifasida kelyapti.

To'ldiruvchi maqollarda quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: Nodon kishi o'zining nasl-nasabiga, olim kishi esa o'zining ilm va adabiga tayanadi . Maqolda ot bilan ifodalangan to'ldiruvchilar nasl-nasabiga, ilm va adabiga so'zlaridir.

2.Olmosh bilan: Xalqning hurmat qilishini tilasang, avval o'zing hammani hurmat qil. Bu misolda hamma olmoshiga -ni tushum kelishigi qo'shilib vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda.

3.Harakat nomi bilan: Xalqning hurmat qilishini tilasang, avval o'zing hammani hurmat qil. Ushbu maqolda qilishini so'zi harakat nomi va u gapda to'ldiruvchi vazifasida keldi.

4.Otlashgan sifat bilan: Yomondan qoch, yaxshiga quloq och. Berilga misolda esa yomon odamdan , yaxshi odamga so'zlari otlashib , kelishik qo'shimchalarini olgan. Shu sababli bu so'zlar gapda to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda.

5.Otlashgan son bilan: Ikkovga birov botolmas, otliqqa yayov yetolmas. Bu yerda ikkovga so'zi otlashib to'ldiruvchi bo'lgan.

6.Otlashgan sifatdosh bilan: Ayrilganni ayiq er, bo'linganni bo'ri yer. Maqolda ayrilganni va bo'linganni so'zlari sifatdosh, ular otlashib kelishik qo'shimchalarini olgan va gapda to'ldiruvchi bo'lgan.

7.To'ldiruvchi so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: O'zingdan kattani hurmat qil. O'zingdan kattani so'z birikmasi birgalikda to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

8.To'ldiruvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanishi mumkin: Yoshi ulug'ni ulug'lasa, baxt topar. Ushbu maqolda yoshi ulug'ni to'ldiruvchi vazifasida keldi.

Sintaktik birlik bo'lgan to'ldiruvchini o'zbek xalq maqollarida o'rinli qo'llash va uning leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlash o'qivchilarning ona tilidan bo'lgan bilimlarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.

2. <https://uzbaza.uz/category/maqollar>

3. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2014-yil.